


# Ўқув режа маълумотларини бошқариш

## Ўқув режа яратиш


Ўқув жараёнини ташкил этишдаги асосий жараёнлардан бири бу ўқув режани яратиш ҳисобланади. Ўқув режа бакалавриат йўналишлари ва магистратура мутахассисликлари учун яратилади.

Ўқув режани яратиш тизимнинг **O‘quv jarayoni/O‘quv reja** менюси орқали амалга оширилади (1-расм).



1-расм. Ўқув режа яратиш ойнаси.

Ўқув режа яратиш учун **+O‘quv reja yaratish** тутмасини босилади ва натижада “Ўқув режани киритиш ойнаси” экранда ҳосил бўлади (2-расм).



2-расм. Ўқув режани киритиш ойнаси

Ўқув режанинг маълумотларини киритиш қўйидагича амалга ошринг:

- **Nomi** майдонига ўқув режа номини киритинг (ўқув режанинг номида таълим йўналишининг қисқа номи, таълим турининг номи, ўқув йили ва таълим шаклининг номи бўлиши тавсия этилади);
- **Mutaxassislik** майдонидан мутахассислик номи танланади, агар рўйхатда хеч қандай мутахассислик бўлмаса у холда дастлаб тизимга мутахассисликни киритиб олиш зарур;
- **Kvalifikatsiyalar** майдонидан квалификация номи танланади, агар рўйхатда хеч қандай квалификация бўлмаса у холда дастлаб тизимга квалификацияни киритиб олиш зарур;

- **O‘quv yili** майдонидан ўқув режа тасдиқланган ўқув йилини танланг;
- **Ta‘lim shakli** майдонидан ўқув режа тегишли бўлган таълим шакли танланади (кундузги, сиртқи, кечки ва бошқалар);
- **Baholash tizimi** майдонидан ўқув режанинг баҳолаш тизими танланади (100 баллик баҳолаш тизими, 5 баллик баҳолаш тизими, кредит баҳолаш тизими);
- **O‘qish muddati (yil)** майдонига ўқув режанинг ўқиш муддати киритилади, масалан бакалавр учун 4 йил, магистр учун 2 йил. Бунда соннинг ўзини киритиш талаб этилади;
- **Semestrlar soni** майдонидан ўқув режадаги семестрлар сони киритинг, масалан бакалавр учун 8 та семестр, магистр учун 4 та семестр;
- **Kuzgi davr** майдонидан кузги семестрнинг бошланиш ва тугаш санасини белгиланг;
- **Baxorgi davr** майдонидан баҳорги семестрнинг бошланиш ва тугаш санаси белигиланг (3-расм).

Ўқув режага тегишли маълумотлар шакллантирилгандан сўнг **Saqlash** тутмаси босилади ва натижада ўқув режа яратилди (2-расм).

3-расм. ўқув режани шакллантириши

Ўқув режани сақлаш вақтида тизим автоматик равища қўйидаги маълумотларни шакллантиради:

- Кўрсатилган ўқув йилидан бошлаб ўқиш муддатига мос равища кейинги ўқув йиллари рўйхатини яратади. Буни **O‘quv jarayoni/O‘quv yili** менюсида кўриш мумкин;
- Кўрсатилган семестрлар сони, кузги давр ва баҳорги давр муддатларига мос равища ўқув режанинг семестрлари рўйхатини яратади. Буни **O‘quv jarayoni/Semestrlar** менюсида кўриш мумкин.

Яратилган ўқув режаларни кўриш тизимнинг **O‘quv jarayoni/O‘quv reja menюси** орқали амалга оширилади (4-расм).

#### 4-расм. Ўқув режалар рўйхати

Юқорида келтирилган кетма-кетлик асосида барча ўқув режа яратиб чиқилади.

#### Ўқув режани таҳрирлаш

Ўқув режани таҳрирлаш учун ўқув режалар рўйхатидан тегишли ўқув режа танланади. Натижада ўқув режанинг таҳрирлаш ойнаси очилади (3-расм).

Ўқув режани таҳрирлаш ойнасидан бирор бир таҳрирлаш амалини бажаринг ва **Saqlash** тугмаси танлаш орқали ўқув режа маълумотларини сақланг.

#### Ўқув режани ўчириш

Ўқув режани таҳрирлаш учун ўқув режалар рўйхатидан тегишли ўқув режа танланади. Натижада ўқув режанинг таҳрирлаш ойнаси очилади (3-расм).

Ўқув режани таҳрирлаш ойнасидан бирор бир таҳрирлаш амалини бажаринг ва **O'chirish** тугмаси танлаш орқали ўқув режа маълумотларини сақланг (3-расм).

**Муҳим!** Тизимда ўчирилаётган ўқув режа билан боғлиқ маълумотлар мавжуд бўлса у ҳолда ушбу ўқув режани ўчиришга рухсат берилмайди. Бундай ҳолларда ўқув режани ўчириш учун дастлаб унга боғлиқ бўлган маълумотларни ўчириш тавсия этилади.

Ўқув режалар таълим йўналиши ва мутахассислик негизида ҳар бир таълим шакли (кундузги, сиртқи, кечки, ...) учун алоҳида тузилади.

#### Ўқув режа семестрларини шакллантириш

Ўқув режани яратиш жараёнида саместрлар автоматик тарзда шаклланади. Яратиш жараёнида семестрлар сони ва муддатини киритиш талаб

етилади. Семестрларда бирор бир ўзгариши киритиш учун **O'quv jarayoni/O'quv reja** менюси танланади. Натижада ўқув режалар рўйхати шаклланган саҳифа очилида (5-расм).

Nomi *	Fakultet	Actions	Tasdiq	Faol
Suniy_intellekt_2021-2022 Axborot texnologiyalarining dasturli ta'minoti	Telekommunikatsiya texnologiyalari Bakalavr / Kredit baholash tizimi	<input checked="" type="checkbox"/> Semestr <input checked="" type="checkbox"/> Xarfa <input checked="" type="checkbox"/> Fanlar bloki <input checked="" type="checkbox"/> Fanlar	<input checked="" type="checkbox"/>	<input checked="" type="checkbox"/>

5-расм. Ўқув режалар рўйхати .

Ўқув режанинг семестрини ўзгариши учун ўқув режалар рўйхатидаги **Tasdiq** тугмасини ўчириб қўйиш зарур. Ўқув режанинг семестрини кўриши учун **Actions** устунида жойлашган **Semestr** тугмасини танланг. Натижада семестрлар рўйхати саҳифаси очилади (6-расм).

Kod	Nomi *	Kurs	O'quv reja	O'quv yili	Muddat	Tasdiq	Faol
11	1-semestr	1-kurs	Suniy_intellekt_2021-2022	2021-2022	04.10.2021 - 02.02.2022	<input checked="" type="checkbox"/>	<input checked="" type="checkbox"/>
12	2-semestr	1-kurs	Suniy_intellekt_2021-2022	2021-2022	07.03.2022 - 25.06.2022	<input checked="" type="checkbox"/>	<input checked="" type="checkbox"/>
13	3-semestr	2-kurs	Suniy_intellekt_2021-2022	2022-2023	04.10.2022 - 02.02.2023	<input checked="" type="checkbox"/>	<input checked="" type="checkbox"/>
14	4-semestr	2-kurs	Suniy_intellekt_2021-2022	2022-2023	07.03.2023 - 25.06.2023	<input checked="" type="checkbox"/>	<input checked="" type="checkbox"/>
15	5-semestr	3-kurs	Suniy_intellekt_2021-2022	2023-2024	04.10.2023 - 02.02.2024	<input checked="" type="checkbox"/>	<input checked="" type="checkbox"/>
16	6-semestr	3-kurs	Suniy_intellekt_2021-2022	2023-2024	07.03.2024 - 25.06.2024	<input checked="" type="checkbox"/>	<input checked="" type="checkbox"/>
17	7-semestr	4-kurs	Suniy_intellekt_2021-2022	2024-2025	04.10.2024 - 02.02.2025	<input checked="" type="checkbox"/>	<input checked="" type="checkbox"/>
18	8-semestr	4-kurs	Suniy_intellekt_2021-2022	2024-2025	07.03.2025 - 25.06.2025	<input checked="" type="checkbox"/>	<input checked="" type="checkbox"/>

6-расм. Семестрлар рўйхати

Семестрни ўзгатирмоқчи бўлсангиз семестрлар рўйхатидан **Tasdiq** тугмасини ўчириб қўйиш керак, масалан 1-семестрни ўчириб қўямиз (7-расм).

Kod	Nomi *	Kurs	O'quv reja	O'quv yili	Muddat	Tasdiq	Faol
12	2-semestr	1-kurs	Suniy_intellekt_2021-2022	2021-2022	07.03.2022 - 25.06.2022	<input checked="" type="checkbox"/>	<input checked="" type="checkbox"/>
13	3-semestr	2-kurs	Suniy_intellekt_2021-2022	2022-2023	04.10.2022 - 02.02.2023	<input checked="" type="checkbox"/>	<input checked="" type="checkbox"/>
14	4-semestr	2-kurs	Suniy_intellekt_2021-2022	2022-2023	07.03.2023 - 25.06.2023	<input checked="" type="checkbox"/>	<input checked="" type="checkbox"/>
15	5-semestr	3-kurs	Suniy_intellekt_2021-2022	2023-2024	04.10.2023 - 02.02.2024	<input checked="" type="checkbox"/>	<input checked="" type="checkbox"/>
16	6-semestr	3-kurs	Suniy_intellekt_2021-2022	2023-2024	07.03.2024 - 25.06.2024	<input checked="" type="checkbox"/>	<input checked="" type="checkbox"/>
17	7-semestr	4-kurs	Suniy_intellekt_2021-2022	2024-2025	04.10.2024 - 02.02.2025	<input checked="" type="checkbox"/>	<input checked="" type="checkbox"/>
18	8-semestr	4-kurs	Suniy_intellekt_2021-2022	2024-2025	07.03.2025 - 25.06.2025	<input checked="" type="checkbox"/>	<input checked="" type="checkbox"/>

7-расм. Семестрлар рўйхати

Семестрлар рўйхатидаги **Tasdiq** тугмани ўчирилгандан сўнг 1-semestr ни танланг. Натижада семестрларни таҳрирлаш саҳифаси очилади (8-расм).

## 8-расм. Семестрларни таҳрирлаш

Семестрларни таҳрирлаш саҳифасида бирор бир ўзгаришни амалга оширинг ва **Saqlash** тугмасини танланг. Натижада танланган семестр таҳририланади.

## Семестрларни ўчириш

Семестрларни ўчириш учун Семестрларни таҳрирлаш ойнасидан **O'chirish** тугмасини танлаш керак.

**Муҳим!** Семестрлар ўқув жараёнини ташкил этишдаги энг муҳим факторлар бири ҳисобланади. Шу сабабли семестрлар билан боғланган бошқа маълумотлар бўлса семестрни ўчиришга йўл қўйилмайди.

## Ўқув режанинг ҳафта кунларини созлаш

Ўқув режа ҳафта кунларини созлаш учун тизимнинг **O'quv jarayoni / O'quv reja** менюси танланг (9-расм).

Nomi	Fakultet	Actions	Tasdiq	Faol
Sunny_intellekt_2021-2022 Axborot texnologiyalarining dasturli ta'minoti	Telekommunikatsiya texnologiyalari Bakalavr / Kredit baholash tizimi	<input checked="" type="checkbox"/> Semestr <input checked="" type="checkbox"/> Xafta <input checked="" type="checkbox"/> Fanlar bloki <input checked="" type="checkbox"/> Fanlar	<input checked="" type="checkbox"/>	<input checked="" type="checkbox"/>
Telekom_2021-2022 (Kechki) Telekommunikatsiya texnologiyalari ("Telekommunikatsiyalar", "Teleradioeshitirish", "Mobil tizimlar")	Telekommunikatsiya texnologiyalari Bakalavr / Kredit baholash tizimi	<input checked="" type="checkbox"/> Semestr <input checked="" type="checkbox"/> Xafta <input checked="" type="checkbox"/> Fanlar bloki <input checked="" type="checkbox"/> Fanlar	<input type="checkbox"/>	<input checked="" type="checkbox"/>
Telekom, tex. bakalavr 2020-2021 (kunduzgi) Telekommunikatsiya texnologiyalari ("Telekommunikatsiyalar", "Teleradioeshitirish", "Mobil tizimlar")	Telekommunikatsiya texnologiyalari Bakalavr / Kredit baholash tizimi	<input checked="" type="checkbox"/> Semestr <input checked="" type="checkbox"/> Xafta <input checked="" type="checkbox"/> Fanlar bloki <input checked="" type="checkbox"/> Fanlar	<input checked="" type="checkbox"/>	<input checked="" type="checkbox"/>
Telekom_2021-2022 (Ikkinchi olyi-S) Telekommunikatsiya texnologiyalari ("Telekommunikatsiyalar", "Teleradioeshitirish", "Mobil tizimlar")	Telekommunikatsiya texnologiyalari Bakalavr / Kredit baholash tizimi	<input checked="" type="checkbox"/> Semestr <input checked="" type="checkbox"/> Xafta <input checked="" type="checkbox"/> Fanlar bloki <input checked="" type="checkbox"/> Fanlar	<input checked="" type="checkbox"/>	<input checked="" type="checkbox"/>

## 9-расм. Ўқув режалар рўйхати

Пайдо бўлган ўқув режалар рўйхатиги ўқув режанинг **Xafta** тугмаси босилади. Ўқув режанинг ҳафта саҳифасига қарайдиган бўлсак машғулотлар ўтиладиган хафталарга **nazariy ta'lim**, ўтилмайдиган турида эса **ta'til**,

семестрда эса **berilmagan** ёзуви бор. Хафтани созлаш учун хафталар рўйхатидан 1-хафтани танланг (10-расм).

The screenshot shows the Hemis OTM software interface. On the left, there is a sidebar with navigation links: Xodimlar, Talabalar, Talaba harakati, O'quv jarayoni, Davomat, O'zlashtirish, Nazoratlar, Akademik arxiv, and Beyting. The main area has two dropdown menus: Kursni tanlang and Semestrni tanlang. Below these are two tables:

Nr	Xafta	Kurs	Semestr	Hafta turi	Faol
1	30.08.2021 - 04.09.2021	1-kurs	(berilmagan)	Ta'til	On
2	06.09.2021 - 11.09.2021	1-kurs	(berilmagan)	Ta'til	On
3	13.09.2021 - 18.09.2021	1-kurs	(berilmagan)	Ta'til	On
4	20.09.2021 - 25.09.2021	1-kurs	(berilmagan)	Ta'til	On
5	27.09.2021 - 02.10.2021	1-kurs	(berilmagan)	Ta'til	On
6	04.10.2021 - 09.10.2021	1-kurs	1-semestr	Nazariy ta'lim	On
7	11.10.2021 - 16.10.2021	1-kurs	1-semestr	Nazariy ta'lim	On
8	18.10.2021 - 23.10.2021	1-kurs	1-semestr	Nazariy ta'lim	On
9	25.10.2021 - 30.10.2021	1-kurs	1-semestr	Nazariy ta'lim	On
10	01.11.2021 - 06.11.2021	1-kurs	1-semestr	Nazariy ta'lim	On
11	08.11.2021 - 13.11.2021	1-kurs	1-semestr	Nazariy ta'lim	On

On the right, there is a panel titled "Hafta raqami: 1" with fields for Boshlanish sanasi (2021-08-30), Tugash sanasi (2021-09-04), Kurs (1-kurs), Semestr (Tanlash), Hafta turi (Ta'til), and buttons for Bekor and Saqlash.

### 10-расм. Хафталар рўйхати созлаш ойнаси

1-хафтани танлангандан сўнг, хафтага тегишила параметрлар рўйхатидан семестр ва хафта турини ўқув графигига қараб ўзгартириш керак, масалан семестрни 1-семестрга, хафтани таътил ёки кредит тизимиға кириш турига ўзгартириб **Saqlash** тугмасини босиш керак. Шу усулда ўқув графигига асосан хафталарни созлаб олиш керак (11-расм).

The screenshot shows the Hemis OTM software interface. The sidebar and main area are similar to the previous screenshot, but the tables show different data:

Nr	Xafta	Kurs	Semestr	Hafta turi	Faol
1	30.08.2021 - 04.09.2021	1-kurs	1-semestr	Ta'til	On
2	06.09.2021 - 11.09.2021	1-kurs	1-semestr	Kredit tizimiga kirish	On
3	13.09.2021 - 18.09.2021	1-kurs	1-semestr	Kredit tizimiga kirish	On
4	20.09.2021 - 25.09.2021	1-kurs	1-semestr	Kredit tizimiga kirish	On
5	27.09.2021 - 02.10.2021	1-kurs	1-semestr	Kredit tizimiga kirish	On
6	04.10.2021 - 09.10.2021	1-kurs	1-semestr	Nazariy ta'lim	On
7	11.10.2021 - 16.10.2021	1-kurs	1-semestr	Nazariy ta'lim	On
8	18.10.2021 - 23.10.2021	1-kurs	1-semestr	Nazariy ta'lim	On
9	25.10.2021 - 30.10.2021	1-kurs	1-semestr	Nazariy ta'lim	On
10	01.11.2021 - 06.11.2021	1-kurs	1-semestr	Nazariy ta'lim	On

On the right, there is a panel titled "Hafta raqami: 5" with fields for Boshlanish sanasi (2021-09-27), Tugash sanasi (2021-10-02), Kurs (1-kurs), Semestr (1-semestr), Hafta turi (Kredit tizimiga kirish), and buttons for Bekor and Saqlash.

### 11-расм. Хафталарни созлаш.

Хафталарни созлашда хафталар тури майдонида **назарий таълим, аттестация, малакавий амалиёт, давлат аттестацияси, битирув иши химояси, таътил, кредит, тизимиға кириш, илмий амалиёт, бошқа** каби хафта турлари мавжуд. Ўқув режанинг хафта кунлари ОТМ ўқув графигига асосан шакллантириб олинади (12-расм).

HEMIS OTM

Asosiy / O'quv reja / Suniy\_intellekt\_2021-2022

Kursni tanlang	Semestri tanlang				
1	30.08.2021 - 04.09.2021	1-kurs	1-semestr	Kredit tizimiga kirish	<input checked="" type="checkbox"/>
2	06.09.2021 - 11.09.2021	1-kurs	1-semestr	Ta'til	<input checked="" type="checkbox"/>
3	13.09.2021 - 18.09.2021	1-kurs	1-semestr	Ta'til	<input checked="" type="checkbox"/>
4	20.09.2021 - 25.09.2021	1-kurs	1-semestr	Ta'til	<input checked="" type="checkbox"/>
5	27.09.2021 - 02.10.2021	1-kurs	1-semestr	Ta'til	<input checked="" type="checkbox"/>
6	04.10.2021 - 09.10.2021	1-kurs	1-semestr	Nazariy ta'lif	<input checked="" type="checkbox"/>
7	11.10.2021 - 16.10.2021	1-kurs	1-semestr	Nazariy ta'lif	<input checked="" type="checkbox"/>
8	18.10.2021 - 23.10.2021	1-kurs	1-semestr	Nazariy ta'lif	<input checked="" type="checkbox"/>
9	25.10.2021 - 30.10.2021	1-kurs	1-semestr	Nazariy ta'lif	<input checked="" type="checkbox"/>
10	01.11.2021 - 06.11.2021	1-kurs	1-semestr	Nazariy ta'lif	<input checked="" type="checkbox"/>
11	08.11.2021 - 13.11.2021	1-kurs	1-semestr	Nazariy ta'lif	<input checked="" type="checkbox"/>
12	15.11.2021 - 20.11.2021	1-kurs	1-semestr	Nazariy ta'lif	<input checked="" type="checkbox"/>
13	22.11.2021 - 27.11.2021	1-kurs	1-semestr	Nazariy ta'lif	<input checked="" type="checkbox"/>
14	29.11.2021 - 04.12.2021	1-kurs	1-semestr	Nazariy ta'lif	<input checked="" type="checkbox"/>
15	06.12.2021 - 11.12.2021	1-kurs	1-semestr	Nazariy ta'lif	<input checked="" type="checkbox"/>
16	13.12.2021 - 18.12.2021	1-kurs	1-semestr	Nazariy ta'lif	<input checked="" type="checkbox"/>
17	20.12.2021 - 25.12.2021	1-kurs	1-semestr	Nazariy ta'lif	<input checked="" type="checkbox"/>
18	27.12.2021 - 01.01.2022	1-kurs	1-semestr	Nazariy ta'lif	<input checked="" type="checkbox"/>
19	03.01.2022 - 08.01.2022	1-kurs	1-semestr	Nazariy ta'lif	<input checked="" type="checkbox"/>
20	10.01.2022 - 15.01.2022	1-kurs	1-semestr	Nazariy ta'lif	<input checked="" type="checkbox"/>
21	17.01.2022 - 22.01.2022	1-kurs	1-semestr	Nazariy ta'lif	<input checked="" type="checkbox"/>
22	24.01.2022 - 29.01.2022	1-kurs	1-semestr	Nazariy ta'lif	<input checked="" type="checkbox"/>
23	31.01.2022 - 05.02.2022	1-kurs	1-semestr	Attestatsiya	<input checked="" type="checkbox"/>
24	07.02.2022 - 12.02.2022	1-kurs	1-semestr	Ta'til	<input checked="" type="checkbox"/>
25	14.02.2022 - 19.02.2022	1-kurs	1-semestr	Ta'til	<input checked="" type="checkbox"/>
26	21.02.2022 - 26.02.2022	1-kurs	1-semestr	Ta'til	<input checked="" type="checkbox"/>
27	28.02.2022 - 05.03.2022	1-kurs	1-semestr	Ta'til	<input checked="" type="checkbox"/>

Hafta raqami: 1

Boshlanish sanasi: 2021-08-30

Tugash sanasi: 2021-09-04

Kurs: 1-kurs

Semestr: 1-semestr

Hafta turi: Kredit tizimiga kirish

Bekor Saqlash

## 12-расм. 1-семестр хафта кунлари

**Мухим!** Ўқув йили бошланишидан олдин албатта ўқув графигига асосан хафта кунларини созлаб олиш керак.

## Ўқув режанинг фанлар блокларини шакллантириш

Ахборот тизимининг “O'quv reja” менюси орқали бакалавриат таълим йўналишлари ва магистратура мутахассисликлари ўқув режаларининг фанлар блоки рўйхатини шакллантириш амалга оширилади.

Ўқув режа фанлар блокини киритиш учун тизимнинг **O'quv jarayoni / O'quv reja** менюси танланади (13-расм).

HEMIS OTM

Asosiy / O'quv jarayoni

Nomi *	Fakultet	Actions	Tasdiq	Faol
Suniy_intellekt_2021-2022 Axborot texnologiyalarining dasturiy ta'minoti	Telekommunikatsiya texnologiyalari Bakalavr / Kredit baholash tizimi	<input checked="" type="checkbox"/> Semester <input checked="" type="checkbox"/> Xafsa <input checked="" type="checkbox"/> Fanlar bloki <input checked="" type="checkbox"/> Fanlar <input checked="" type="checkbox"/> Mavzular	<input type="checkbox"/>	<input checked="" type="checkbox"/>

## 13-расм. Ўқув режалар рўйхати

Пайдо бўлган ойнадан ўқув режанинг **Fanlar bloki** тугмаси танланади, сўнгра ўқув режа фанлар блокларини киритиш ойнаси очилади (14-расм).

Фанлар блоки маълумотларини қуидагича шакллантиринг:

- **O‘quv reja** майдонидан ўқув режани танланг;
- **Fanlar bloki** майдонидан фанлар блокини танланг. Тизимда **gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlar, matematik va tabiiy-ilmiy fanlar, umumkasbiy fanlar, ixtisoslik fanlari, qo‘sishimcha fanlar, umummetodologik, fanlar, mutaxassislik fanlari, tanlov fanlar, Ilmiy faoliyat** каби бир нечта фанлар блоки бор.
- **Kod:** Фанлар блокининг кетма-кетлик рақами киритилади, масалан: 1.00

Керакли маълумотлар шакллантирилгандан сўнг **Saqlash** тугмасини танланг. Натижада фанлар блоки тизимга сақланади ва фанлар блоки рўйхатига қўшилади (14-расм).

14-расм. Фанлар блокини ташкил этиш.

Худди шу кетма-кетликда барча фанлар блоки шакллантириб олинади

### Ўқув режа фанлар блокини таҳирлаш

Ўқув режа фанлар блокларини таҳирлаш учун тизимнинг **O‘quv jarayoni / O‘quv reja** менюси танланади ва пайдо бўлган ойнадаги тегишли ўқув режанинг **Fanlar bloki** тугмаси босилади (13-расм). Шундан сўнг “Ўқув режа фанлар блокларини таҳирлаш ойнаси” очилади. Ушбу ойнадаги таҳирлаш талаб қилинаётган фанлар блоки кодига босилади ва фанлар блокининг маълумотлари таҳирлаш майдонларига юкланди (14-расм). Маълумотлар устида тегишли таҳирлашлар якунланганидан сўнг фанлар блоки маълумотларини қайта сақлаш учун **Saqlash** тугмаси босилади.

### Ўқув режанинг фанлар блокларини ўчириш

Ўқув режа фанлар блокларини таҳирлаш учун тизимнинг **O‘quv jarayoni / O‘quv reja** менюси танланади ва пайдо бўлган ойнадаги тегишли ўқув режанинг **Fanlar bloki** тугмаси босилади (13-расм). Шундан сўнг “Ўқув режа фанлар блокларини таҳирлаш ойнаси” очилади. Ушбу ойнадаги

тахрирлаш талаб қилинаётган фанлар блоки кодига босилади ва фанлар блокининг маълумотлари тахрирлаш майдонларига юкланади (14-расм).

Шундан сўнг **O'chirish** тугмасини босиш орқали танланган фанлар блоки тизимдан ўчирилади.

## Ўқув режанинг фанларини шакллантириш

Ўқув режа фанларини киритиш учун **O'quv jarayoni/O'quv reja** менюси танланади (15-расм).

15-расм. Ўқув режа рўйхати

Пайдо бўлган ойнадан ўқув режанинг **Fanlar** тугмаси танланади, сўнгра ўқув режа фанларини киритиш ойнаси очилади (16-расм).

16-расм. Фанларни киритиш

Ўқув режанинг мос семестрига фанларни киритиш учун фанлар рўйхатидан тегишли фанларни бирин-кетин сичқонча билан ушлаб семестр ичига олиб келиб ташлаш зарур. Шундан сўнг семестр таркибига танланган фанлар қўшилади (16-расм).

Агар фанлар рўйхати жуда узун бўлиб кетган бўлса у ҳолда рўйхат юқорисидаги фильтрдан тегишли **Fanlar guruhini** танлаб фанларни фильтрлаш ҳам мумкин (17-расм).

The screenshot shows a search interface with a sidebar containing navigation links like 'Talabalar', 'O'quv jarayoni', 'Davomat', 'O'zlashtirish', 'Nazoratlar', 'Akademik arxiv', and 'Reyting'. The main area displays a list of courses under 'Fanlar guruhini tanlang' with a search bar for 'Fanni qidirish'. A dropdown menu 'Nomi\*' lists subjects such as 'Amaliy matematika [MAT1001]', 'DAK (Tarix) [DAK1001]', etc. To the right, a summary table for 'Jami asosiy yuklama' is shown with a green 'Yuklab olish' button.

## 17-расм. Ўқув режа фанлари рўйхати

Худди шу кетма-кетлик асосида ўқув режанинг барча семестрдаги фанлари шакллантирилиб олинади.

### Семестр фанини ўчириш

Семестр фанини ўчириш учун 17-расмда келтирилган ўқув режа фанлари рўйхатидан фанни танланг. Натижада фаннинг силлабуси ойнаси пайдо бўлади. Ушбу ойнадан **O'chirish** тутмасини танлаш керак (18-расм).

### Фаннинг силлабус маълумотларини киритиш

Ўқув режа семестрига зарурый фанлар қўшиб бўлинганидан сўнг ҳар бир фаннинг силлабус маълумотларини киритиш талаб этилади. Бунинг учун 17-расмда келтирилган семестр ичидаги фаннинг номига сичқонча билан босилади ва фан маълумотларини киритиш ойнасини очилади (18-расм).

The form is titled 'Syllabus ma'lumotlarini kiritish: C/C++ dasturlash [1-semestr, Xafta: 17]'. It contains fields for basic information: 'Asosiy ma'lumotlar' (Faculty: Kafedra / Bo'lim, Course: Fanlar bloklari, Type: Fan turi), 'Qaydnomalar' (Type: Fan qaydnomasi, Credit: Kredit, Status: Umumiy yuklama), 'Faol' (Active: Ha), and 'Yakuniy baholash turi' (Assessment: Imtihon, Zchet). There are checkboxes for 'Semestr fani' and 'Fanni tasdiqlash'. Below these are sections for 'Vaqtni taqsimlash' (Time distribution) and 'Reytingni taqsimlash' (Grade distribution), each with multiple dropdown menus. At the bottom are buttons for 'Bekor', 'O'chirish' (red), and 'Saqlash'.

## 18-расм. Фан маълумотларини киритиш ойнаси

Фанлар маълумотларини киритиш ойнасидаги майдонларга фаннинг қўйидаги силлабус маълумотлари киритилади, бунда:

- **Kafedra/Bo‘lim:** фан машғулотларини олиб борадиган кафедра номи;
- **Fanlar bloklari:** фан тегишли бўлган фанлар блоки номи;
- **Fan turi:** фан тури номи (масалан: мажбурий, танлов ва бошқалар);
- **Qaydnama turi:** ушбу фандан талабалар ўзлаштириш натижаларини киритиш қайдномаси тури (масалан: фан қайдномаси, курс иши қайдномаси, малакавий амалиёт қайдномаси, давлат имтиҳони қайдномаси, битирув иши қайдномаси);
- **Kredit:** фаннинг кредит бирлиги;
- **Umumiyluk yuklama:** машғулотлар юкламаларининг йифиндиси, тизим томонидан автоматик ҳисобланади;
- **Faol:** фаннинг фаол ёки нофаллиги белигланади. Одатда ўкув жараёни бошланишида фаол кўринишида бўлади
- **Yakuniy baholash turi:** семестр якунида фан бўйича талабалар ўзлаштириш баҳоланадиган бўлса имтиҳон тури белгиланади, агар баҳоланмайдиган бўлса зачет тури белгиланади;
- **Semestr fani:** агар киритилаётган фан дарс жадвалига қўйиладиган фан бўлса у ҳолда ушбу параметр ўрнатилади, агар курс иши ва малакавий амалиёт каби дарс жадвалига қўйилмайдиган фан бўлса у ҳолда бу параметр ўрнатилмайди;
- **Fanni tasdiqlash:** ушбу параметрни ўрнатиш орқали фанни тасдиқлаш ва унинг бошқа маълумотларини ўзгартаришни тақиқлаб қўйиш мумкин;
- **Vaqtni taqsimlash:** келтирилган машғулот турларининг мослари танланади ва уларнинг соатлари киритилади;
- **Reytingni taqsimlash:** келтирилган назорат турларининг мослари танланади ва рейтинг баллари киритилади. Бунда ушбу фандан семестр давомида бир марта назорат ўтказиладиган бўлса у ҳолда жорий назорат ва оралиқ назорат танланади. Агар икки марта назорат ўтказиладиган бўлса у ҳолда 1-жн, 2-жн, 1-он, 2-он танланади ва тегишли баллар киритилади. Назорат турларига киритилаётган рейтинг балларининг умумий йифиндиси 100 балдан ошмаслиги зарур.

Натижада қўйидагича маълумотлар шаклланади (19-расм).

Syllabus ma'lumotlarini kiritish: C/C++ dasturlash [1-semestr, Xafta: 17]

Asosiy ma'lumotlar	Fanlar bloklari	Fan turi
Kafedra / Bo'lim TBTA va DT	Umumkasbiy fanlar	Majburiy
Qaydnama turi Fan qaydnomasi	Kredit 6	Umumiyluklama 180
Faol Ha	Yakuniy baholash turi Imtihon	Semestr fani <input checked="" type="checkbox"/> Semestr fani <input type="checkbox"/> Fanni tasdiqlash
Vaqtni taqsimlash:	<input checked="" type="checkbox"/> Ma'ruba <input checked="" type="checkbox"/> Amaliy <input checked="" type="checkbox"/> Laboratoriya <input type="checkbox"/> Seminar <input type="checkbox"/> Trening <input type="checkbox"/> Kurs ishi <input checked="" type="checkbox"/> Mustaqil ta'lim  30      30      30                          90	
Reytingni taqsimlash:	<input type="checkbox"/> 1-jn <input type="checkbox"/> 2-jn <input type="checkbox"/> 1-on <input type="checkbox"/> 2-on <input checked="" type="checkbox"/> Joriy nazorat <input checked="" type="checkbox"/> Oraliq nazorat <input checked="" type="checkbox"/> Yakuniy nazorat      Umumiyluk  30      20      50      100	
	Bekor	O'chirish
	<input checked="" type="checkbox"/> Saqlash	

### 19-расм. Силлабус маълумотларни киритиши

Майдонларга тегишли маълумотлар киритиб бўлинганидан сўнг **Saqlash** тугмасини босиш орқали фаннинг силлабус маълумотлари тизимга сақланади. Худди шу кетма-кетликда барча фанлар силлабуси шакллантирилади. Фанлар рўйхатини кўриш учун 15-расмда келтирилган ўкув режа саҳифасидан ўкув режанинг фанлар тугмаси танланади. Натижада ўкув режа фанларини киритиши ойнаси очилади (20-расм).

1-semestr		1380 soat/42 kredit
❖ Tarix [HUM1001]	180 soat / 6.0 kredit / T / SF1 / FBQ	
❖ Falsafa [TF001]	180 soat / 6.0 kredit / T / SF1 / FBQ	
❖ O'zbek tili [LNG1001]	180 soat / 4.0 kredit / M / SF1 / FBQ	
❖ Rus tili [LNG1002]	180 soat / 4.0 kredit / M / SF1 / FBQ	
❖ Amaliy matematika [MAT1001]	210 soat / 8.0 kredit / M / SF1 / FBQ	
❖ Fizika [ MTF002]	270 soat / 8.0 kredit / M / SF1 / FBQ	
❖ C/C++ dasturlash [SWS1001]	180 soat / 6.0 kredit / M / SF1 / FBQ	

### 20-расм. Фанлар рўйхати.

Фаннинг силлабус маълумотлари сақлангандан сўнг ўкув режа семестридаги фаннинг номида фаннинг умумий юкламаси, фан кредити ва мажбурий ёки танлов фани белгиси пайдо бўлади (20-расм).

Кредит баҳолаш тизими ўрнатилган ўкув режаларда фаннинг силлабус маълумотларини сақлашда тизим томонидан ўкув режанинг назарий таълим ҳафталари сони, фаннинг кредит бирлиги ва фан умумий юкламасининг мутаносиблиги текширилади. Бунда куйидаги қонуният бажарилганда сақлашга руҳсат берилади:

Фаннинг умумий юкламаси = Назарий таълим хафталар сони \* 2 \* кредит.

### Фаннинг силлабус маълумотларини таҳтирилаш

Фаннинг силлабус маълумотларини таҳтирилаш учун 20-расмда келтирилган ўкув режа семестри таркибидаги тегишли фаннинг номига босамиз ва “Фаннинг силлабус маълумотларини таҳтирилаш ойнаси”ни очамиз (21-расм).

Sillabus ma'lumotlarini kiritish: Tarix [1-semestr, Xafta: 15]

Asosiy ma'lumotlar	Tanlov fanlarni guruhlash						
Kafedra / Bo'lim	Fanlar bloklari	Fan turi					
TBTA va DT	Gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy f...	Tanlov					
Qaydnomalar turi	Kredit	Umumiy yuklama					
Fandan o'zlashtirish qaydnomasi	6.0	180					
Yakuniy baholash turi							
<input checked="" type="radio"/> Imtihon <input type="radio"/> Zchet	<input checked="" type="checkbox"/> Semestr fani	<input type="checkbox"/> Fanni tasdiqlash					
Vaqtni taqsimlash:							
<input checked="" type="checkbox"/> Ma'ruba	<input type="checkbox"/> Amaliy	<input type="checkbox"/> Laboratoriya	<input checked="" type="checkbox"/> Seminar	<input type="checkbox"/> Trening	<input type="checkbox"/> Kurs ishi	<input checked="" type="checkbox"/> Mustaqil ta'lim	
60			30			90	
Reytingni taqsimlash:							
<input type="checkbox"/> 1-jn	<input type="checkbox"/> 2-jn	<input type="checkbox"/> 1-on	<input type="checkbox"/> 2-on	<input checked="" type="checkbox"/> Joriy nazorat	<input checked="" type="checkbox"/> Oraliq nazorat	<input checked="" type="checkbox"/> Yakuniy nazorat	<b>Umumiy</b>
				20	30	50	100

Bekor O'chirish Saqlash

21-расм. Фаннинг силлабус маълумотларини таҳтирилаш ойнаси

Ушбу таҳтирилаш ойнасида фаннинг тегишли силлабус маълумотлари таҳтириланади ва маълумотларни қайта сақлаш учун **Saqlash** тугмаси босилади.

## Ўқув режа фанларини ўчириш

Ўқув режадаги талаб қилинаётган фанни ўчириш учун ўқув режа семестри таркибидаги тегишли фаннинг номига босамиз (20-расм) ва “Фаннинг силлабус маълумотларини таҳрирлаш ойнаси”ни очамиз (21-расм).

Фанни ўчириш учун ушбу таҳрирлаш ойнасидаги **O'chirish** тутмаси босилади. Шундан сўнг фан билан бирга унинг силлабус маълумотлари ҳам ўқув режадан ўчирилади.

### Танлов фанларини гуруҳлаш

Ўқув режа семестрига иккитадан ортиқ танлов фани (20-расм) киритилган бўлса талабалар томонидан танлаш имкониятини бериш учун ушбу танлов фанларини гуруҳлаш зарур. Бунда гуруҳланадиган танлов фанларининг тоифаси ва силлабус маълумотлари бир хил бўлиши шарт. Танлов фанлари гуруҳлангандан сўнг ўқув режанинг умумий юкламасига ушбу гуруҳдаги фанлардан биттасининг юкламаси ва кредити қўшилади ҳамда талабаларга ушбу гуруҳдаги фанларнинг биттасини танлаш имконияти берилади.

Ўқув режа семестридаги танлов фанларни гуруҳлаш учун 20-расмда келтирилган ойнадан танлов фанларидан бирининг номига босилади ва пайдо бўлган фаннинг силлабус маълумотларини киритиш ойнасининг “Танлов фанларни гуруҳлаш” қўшимча ойнасига ўтилади (22-расм).

Шундан сўнг **Guruhda** майдонига босамиз ва пайдо бўлган фанлар рўйхатидан танланган фан билан гуруҳланиши лозим бўлган фанларни бирин-кетин танлаймиз, масалан Фалсафа.

Sillabus ma'lumotlarini kiritish: Tarix [1-semestr, Xafta: 15]

Asosiy ma'lumotlar Tanlov fanlarni guruhlash

Guruhda

x Falsafa

Bekor O'chirish ✓ Saqlash

22-расм. Танлов фанларини гуруҳлаш ойнаси

Гуруҳланадиган фанлар танлаб бўлингандан сўнг **Saqlash** тутмаси босилади. Натижада экранда қўйидагича маълумот пайдо бўлади (3.5.30-расм).

❖ Tarix [HUM1001]	180 soat / 6.0 kredit / T / SF1 / FBQ
❖ Falsafa [TF001]	180 soat / 6.0 kredit / T / SF1 / FBQ
❖ O'zbek tili [LNG1001]	180 soat / 4.0 kredit / M / SF1 / FBQ
❖ Rus tili [LNG1002]	180 soat / 4.0 kredit / M / SF1 / FBQ
❖ Amaliy matematika [MAT1001]	210 soat / 8.0 kredit / M / SF1 / FBQ
❖ Fizika [ MTF002]	270 soat / 8.0 kredit / M / SF1 / FBQ
❖ C/C++ dasturlash [SWS1001]	180 soat / 6.0 kredit / M / SF1 / FBQ

### 3.5.30-расм. Ўкув режа семестрининг фанлар рўйхати

Танлов фанлар гуруҳлангандан сўнг битта гуруҳга кирувчи фанларнинг фон ранги бир хил тусга ўтади ҳамда семестрининг умумий юкламасида гуруҳдаги битта фаннинг юкламаси ва кредитлари ҳисобга олинади, мисол учун 3.5.30-расм келитирилга фанларнинг умумий кредитини ҳисобласак 42, лекин тизим 36 ҳисоблаяпти. Бунинг сабаби танлов фани борлигига.

#### Мухим!

1. Фан ўчирилаётганда тизимда унга боғлиқ бўлган бошқа маълумотлар мавжуд бўлса у ҳолда ушбу фанни ўчиришга рухсат берилмайди. Шунинг учун фан ва унга боғлиқ бошқа маълумотларни киритишида масъулият билан ёндошиш керак.
2. Танлов фанлари гуруҳлангандан сўнг фанни гуруҳдан чиқаришнинг имкони мавжуд эмас. Шунинг учун танлов фанларнинг ўзгармаслигига ишонч ҳосил қилгандан сўнг гуруҳлашни амалга ошириш тавсия этилади.